



YOSHLARNI MA'NAVİY-AXLOQIY RUHDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Z.Sh.Alimardonov,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash" kafedrası boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent;

B.B.Abduvasiyev,

*O'zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti 121-a guruh kursanti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashning psixologik jihatlari batafsil tahlil qilinadi. Maqolada yoshlarning shaxsiyati shakllanishida axloqiy qadriyatlarning o'rni, ularni shakllantirishda ta'lim tizimi, oila va ijtimoiy muhitning ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Mualliflar yoshlarni motivatsiyalash, shaxsiy namunaviy ta'sir ko'rsatish, rivojlantiruvchi o'yinlar va treninglar kabi samarali psixologik usullar orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yo'llarini yoritadilar. Shuningdek, Abdulla Avloniy merosi asosida axloq ilmining mohiyati va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ta'kidlanadi. Zamonaviy jamiyatda axloqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, yoshlarning ichki motivatsiyasini uyg'otish, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvi muhim vazifa sifatida ko'riladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, psixologik omillar, yoshlar tarbiyasi, motivatsiya, ijtimoiy muhit, oila tarbiyasi, shaxsiy namunaviy ta'sir, ta'lim tizimi, axloqiy madaniyat, rivojlantiruvchi o'yinlar, treninglar, shaxsiy o'sish, axloqiy ong, axloqiy faoliyat, ijtimoiy integratsiya.

Аннотация: В статье подробно рассматриваются психологические аспекты нравственного воспитания молодежи. Анализируется роль нравственных ценностей в формировании личности, а также значение образовательной системы, семьи и социальной среды в этом процессе.



Авторы описывают эффективные психологические методы воспитания, включая мотивацию, личный пример, развивающие игры и тренинги. Особое внимание уделяется наследию Абдуллы Авлония и его влиянию на воспитание молодежи. В современных условиях формирование нравственной культуры, развитие внутренней мотивации и адаптация к социальной среде считаются ключевыми задачами.

Ключевые слова: духовное воспитание, нравственные ценности, психологические факторы, воспитание молодежи, мотивация, социальная среда, семейное воспитание, личный пример, образовательная система, нравственная культура, развивающие игры, тренинги, личностный рост, нравственное сознание, нравственная деятельность, социальная интеграция.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the psychological aspects of moral and ethical education of youth. It examines the role of ethical values in personality development and emphasizes the importance of the education system, family, and social environment in this process. The authors discuss effective psychological methods of education such as motivation, personal example, developmental games, and training sessions. Special attention is given to the legacy of Abdulla Avloni and its influence on youth education. In the modern context, fostering moral culture, developing internal motivation, and facilitating social adaptation are considered essential tasks.

Keywords: moral education, ethical values, psychological factors, youth upbringing, motivation, social environment, family upbringing, personal example, education system, moral culture, developmental games, training sessions, personal growth, moral consciousness, moral activity, social integration.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Ayniqsa, ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga e'tibor qaratish, ular ongida milliy qadriyatlarni



shakllantirish, odob-axloq me'yorlariga rioya qilishni targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida psixologik omillar alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida psixologik jarayonlarning o'rni, bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar hamda samarali tarbiya usullari haqida so'z yuritamiz.

Ta'lim-tarbiya, odob-axloq haqida so'z ketar ekan biz atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir, mashhur tarbiyachi Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud - axloq" asarini albatta yodga olamiz.

Axloq. Insonlarni yaxshilikg'a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O'z aybini bilub, iqrar qilub tuzatmakg'a harakat qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur. Abdulla Avloniy axloqga ta'rif berar ekan axloq ilmini mukammal bilgan inson bu dunyodagi vazifazini hamda yaratgan oldidagi vaziafisini juda yaxshi biladi deydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar

Ma'naviy-axloqiy tarbiya inson shaxsining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonning psixologik jihatlari quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

Tafakkur va ong rivojlanishii – Yoshlar axloqiy normalarni tushunishi va qabul qilishi ularning aqliy rivojlanish darajasiga bog'liq. Inson tafakkuri qanchalik rivojlangan bo'lsa, u shunchalik axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi.

Hissiy tarbiya – Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki hissiy tajribalar orqali ham shakllanadi. Masalan, mehr-oqibat, hamdardlik, vatanparvarlik kabi his-tuyg'ular yoshlarning ongida chuqur iz qoldiradi.



Ijtimoiy muhit va tarbiya – Oila, ta'lim muassasalari, do'stlar va jamiyat yoshlarning ma'naviy rivojlanishida muhim omillardan biridir. Bunda farzandlar ota-onasining harakat va xatti-harakatlariga taqlid qilgan holda tarbiya topadilar.

Oila muhitining ta'siri-Oilaviy tarbiya yoshlarning ilk ma'naviy tushunchalarini shakllantiradi. Ota-onalar va katta yoshdagi oila a'zolari bolalarga namuna bo'lishadi. Agar oilada mehr-oqibat, odob-axloq, halollik va insonparvarlik qadriyatlariga e'tibor qaratilsa, farzandlar ham bu qadriyatlarni o'zlashtirib boradi.

Ta'lim tizimining o'rni-Maktab va universitetlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga nafaqat bilim berilishi, balki ular ongida yuksak axloqiy qadriyatlar shakllantirilishi lozim.

Ta'lim jarayonida quyidagi usullar samarali bo'lishi mumkin:

Ochiq muloqot va munozaralar o'tkazish;

Milliy va jahon adabiyoti namunalaridan foydalanish;

Hayotiy tajribalar asosida axloqiy saboqlar berish.

Jamiyat va atrof-muhitning ta'siri

Yoshlar ko'pincha ijtimoiy muhitdan o'zlariga kerakli axloqiy tushunchalarni qabul qiladilar. Shuning uchun jamiyatda sog'lom axloqiy muhitni yaratish muhimdir. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri kuchayib borayotgan bir paytda, ular orqali sog'lom ma'naviyatni targ'ib qilish lozim.

Ma'naviy axloqiy tarbiyaning ta'siri

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa yega bo'lib, uni samarali tashkil yetish yoshlarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongida singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.





Axloq tarbiyasining ta'siri - buda insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki dars oluvchi-biluvchi, tarbiya oluvchi-amal qiluvchi demakdur. Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlari ilmlariga omil bo'lub shogirdlarga ham bergan darslarini amal ila chaqushturub o'rgatmaklari lozimdur. Bu ravishi ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilub, mulloyi boamal bo'lurlar

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk namoyondalari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilish mazmuni, nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Shuningdek, u odamlarning amal qilib kelayotgan tajribalari, yutuqlari, urf-odatlar va an'analari asosida tashkil qilingan. Hozirgi eng dolzarb muammolardan biri oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini keskin oshirishdan iboratdir. Chunki respublikamizning rivoji, ravnaqi va istiqboli ko'proq oliy maktab tayyorlayotgan mutaxassislarning mahoratiga bog'liqdir. Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun yoshlar bilan o'qituvchilar o'rtasida uzluksiz ta'sir o'tkazish hukm surishi lozim. O'qituvchi bilan talabaning hamkorlikdagi faoliyati negizida o'quv-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish muammosi yotadi. Bu borada biz dastlab, buyuk allomalarimiz qoldirgan ta'lim va tarbiya borasidagi asarlari, g'oyalar va ularning bugungi kundagi ahamiyatini o'rganishni lozim topdik.

Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali psixologik usullari

Motivatsiya va rag'batlantirish ta'siri-Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi ko'pincha ichki motivatsiyaga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun yoshlarni ezgulik sari undashda ularga motivatsion yondashuvlar qo'llash kerak. Masalan: Ezgu ishlar qilgan yoshlarni rag'batlantirish; Ularni o'z oldiga maqsad qo'yishga undash; Mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish;



Rivojlantiruvchi o'yinlar va treninglar ta'siri-Yoshlarning axloqiy tushunchalarini rivojlantirish uchun turli o'yin va treninglardan foydalanish mumkin. Masalan, rolli o'yinlar, sahnalashtirilgan tomoshalar, axloqiy muammolarni hal qilish bo'yicha muhokamalar ularning fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshiradi.

Shaxsiy namunaviy ta'sir-O'qituvchilar, ota-onalar, jamiyat yetakchilari yoshlar uchun namunadir. Yoshlar katta yoshdagilarni kuzatib, ularga taqlid qilishadi. Shuning uchun kattalar o'z xatti-harakatlari, odobi bilan yoshlarga ibrat bo'lishlari kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, axloqiy tarbiya va axloqiy madaniyat mohiyatan jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotida namoyon bo'ladi. Axloqiy madaniyatning bosh maqsadi esa insonni haqiqatga olib borish, uni komil shaxs sifatida tarbiyalash masalasidir. Shu asnoda axloqiy madaniyat ijtimoiy hayot bilan bevosita munosabatga kirishadi. Axloqiy madaniyatni rivojlantirish bu sohada dunyo xalqlari to'plagan tajribalarini o'rganish va ijtimoiy hayotga tadbiiq etish dolzarblik kasb etadi. Yoshlarni axloqiy madaniyatini shakllantrish va axloqiy tarbiya bo'yicha asosiy tadbirlarni oila va mehnat jamoalarida, xususan bolalar bog'chasi va umumiy o'rta maktablarida yuksak darajada amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu bilan muayyan darajada individ qamrab olinadi: har holda individning axloqiy qiyofasini yuksaltirish jamiyat talablari darajasida amalga oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" 2-tab'i, sana 1336 h./1917 m. Toshkent, Tip. Lit. «Par. Sots, revolyuts» 1917g.
2. E. G'oziyev.Oliy maktab psixologiyasi.-T.: O'qituvchi. 1997.40-43b.
3. Karimova M. Yosh avlodni tarbiyalashning ma'naviy axloqiy jihatlari. Ayol- ma'naviyat gulshani IIV respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2015 yil.



311-313 b.

4. Karimova M “Ilk o‘spirinlik davridagi o‘quvchilarda axloqiy hislarni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari” monografiya T-2021. 64-66 b.

5. J. S. Ramatov, Mirshod No‘monovich Hasanov, & L. A. Valiev (2022). Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta’limotlari (abu nasr forobiy, abu rayhon beruniyning Siyosiyhuquqiy qarashlari asosida). Academic research in educational sciences, 3 (6), 705-712.